


UZBEKISTAN AIRWAYS

INFLIGHT MAGAZINE



#05

September, 2022

06

Toshkent metrosi -
YER OSTIDAGI MUZEY

Tashkent metro - "UNDERGROUND
MUSEUM"

16

Bu yil kuzda dam olish uchun
QAYERGA SAYOHAL QILISH
MUMKIN?

Where to go on
VACATION THIS FALL

29

Toshkentga sayohat
qilish uchun
5 SABAB

5 reasons
TO VISIT TASHKENT



Milanga juma kunlari Uzbekistan Airways

bilan sayohat qiling

Travel to **Milan** with
Uzbekistan Airways on Fridays



safety • stability • comfort

📞 78 140 02 00

Urganch - Milan 3 264 996 so`mdan
(bir tarafga)

Urgench - Milan starts from 301 EURO
(one way)



PLOV
LOUNGE & BANQUET HALL

Sizni Abdulla Qodiriy ko'chasi 25/1
manzilida kutamiz.
Raqam bo'yicha jadvalni bron qilish:
90 951-55-88, 71 237-67-06
plovlounge

Uzbekistan Airways

Bort jurnali Inflight Magazine

#05, September, (110) 2022

Tahririyat kengashi raisi

Chairman of the Editorial Board

Umid Xusanov

Bosh muharrir

Editor-in-Chief

Yulduz Latipaeva

Dizayn va sahifalovchi

Design & Layout

Nodira Shoxizindayeva

Tahririyat jamoasi

Editorial team

Feruza Kurbonova

Ozoda Azimova

Kamola Ikramova

Bahodir Imomjonov

Matluba Kuliyeva

Jamoliddin Hamdamov

Tarjimon

Interpreter

Gulera Shermatova

Foto

Photo

Abdulaziz Xalilov

Kamil Yenikeyev

Reklama bo'yicha murojaat:
For advertisement:

+998 78 140-45-20
+998 78 140-45-21

Manzil:
Amir Temur shohko'chasi, 41, Toshkent, 100015,
O'zbekiston
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

1993-yildan beri nashr etiladi.
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririysi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar(O'zMAA)
03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

The magazine is registered by Press and Information
Agency of Uzbekistan on 03.01.2007. Registration
number № 0115

Address:
Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

Published Since 1993 Publisher – JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

ISSN 2181-8266




«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop
etilgan. Buyurtma № 1116 Adadi 10 000
Manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani,
Qo'shko'prik ko'chasi, 28/1 -uy

Printed at PRINTUZ Ltd. Order #1116 Circulation - 10 000
Address: 28/1, Mirabad dis., Kashkorprik st., Tashkent

MUNDARIJA

CONTENTS





Dear passengers!

Uzbekistan Airways company welcomes you on board! The head and staff congratulate the citizens of our country on the 31st Anniversary of Independence Day of the Republic of Uzbekistan! We wish our country and its noble people health, success and prosperity! This issue of the magazine is dedicated to the city of Tashkent, capital of Uzbekistan. As you know, every capital is the locomotive of the country. Tashkent can rightly be called a majestic city, where history harmoniously coexists with modernity. For many centuries, this city has been an important center and crossroads of many cultures, as evidenced by numerous historical and architectural monuments of different eras. Today, our capital is flourishing very dynamically, striving to take its rightful place among the capitals of the world: business centers appear and develop here, large global brands open their branches, and at the same time, citizens cherish the history and ecology of their native Tashkent.

We are sure that a visit to the capital of Uzbekistan will meet your expectations and may even exceed them. In Tashkent, take the opportunity to see unique places and enrich your impressions of our country.

We wish you a pleasant flight!

Hurmatli yo'lovchilar!

Uzbekistan Airways
aviakompaniyasi sizni havo kemasi sahnida kutib olishdan mamnun!
Rahbariyat va barcha xodimlar mamlakatimiz fuqarolarini Mustaqillik kuni – O'zbekiston Respublikasining 31 yilligi bilan tabriklaydi! Yurtimizga, oljanob xalqimizga sihat-salomatlik, muvaffaqiyat va farovonlik tilaymiz!
Jurnalimizning ushbu soni O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahriga bag'ishlandi. Ma'lumki, har bir poytaxt - mamlakatning lokomotividir. Toshkentni haqli ravishda tarix bilan zamonaviylik uyg'unlikda yashayotgan mahobatli shahar deyish mumkin. Ko'p asrlar davomida bu shahar ko'plab madaniyatlarning muhim markazi va chorrahasi bo'lib kelgan, buni turli davrlarga oid ko'plab tarix va me'morchilik yodgorliklari tasdiqlaydi. Poytaxtimiz bugun juda jadal rivojlanib, dunyo poytaxtlari qatoridan munosib o'rin egallashga intilmoqda: bu yerda biznes markazlari paydo bo'lmoqda va rivojlanmoqda, yirik jahon brendlari o'z filiallarini ochmoqda, shu bilan bir qatorda, fuqarolar Toshkent tarixi va ekologiyasini qadrlamoqda.
Ishonchimiz komilki, O'zbekiston poytaxtiga tashrifingiz kutgan umidlaringizni oqlaydi, va hatto, kutganingizdan ham a'lo bo'ladi. Toshkentda betakror joylarni ko'rish va yurtimiz haqidagi taassurotlaringizni boyitish imkoniyatidan foydalaning.

Sizga yoqimli parvoz tilaymiz!





The easiest decision of your trip

Delivering the exceptional stay you deserve,
everywhere you want to be.

Intuitively designed for both function and comfort, it's our priority to give you a seamless experience – every time. With a variety of amenities you can count on, you'll have everything you need to stay on track.

Hampton by Hilton
Tashkent 17, Istiqbol str.
Tashkent, Uzbekistan,
100047
+998712052200
<http://hampton.com/>

- Free, hot breakfast
- Restaurant and Lobby Bar
- Modern fitness center 24/7
- Business center 24/7
- Meeting facilities
- Free Wi-Fi



With 2,800 locations across the globe, wherever and whenever you stay with us you'll be welcomed with a warm smile and thoughtful service that makes you happy – because that's what makes us happy.

**That's the 100% Hampton
Guarantee™**

Toshkent metrosi - yer ostidagi muzey



Aytishlaricha, agar shahar aholisi milliondan oshsa, metro qurilishi boshlanadi. Aslida, metro shahar aholisining harakatlanish muammolarini hal qilishi kerak va shuning uchun u megapolisning muhim transport bo‘g‘ini hisoblanadi. Toshkentda metro XX asrning ikkinchi yarmida, zilziladan keyin yangilangan Toshkent rejasining bir qismi sifatida qurila boshlandi va bu Markaziy Osiyodagi birinchi metro bo‘ldi.

Dastlab Chilonzor yo‘li qurildi, so‘ngra O‘zbekiston yo‘li ishga tushdi va 2001-yilda Yunusobod yo‘li foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda poytaxtda qirqdan ortiq betakror, rang-barang va hayratlanarli bekatlar muvaffaqiyatlari ishlamoqda. Ularning ko‘pchiligining o‘ziga xos afzalligi - bu noyob dizayni.

Shubhasiz, Dehli, Parij, London, Nyu-York va boshqa shu kabi yirik shaharlarning metrosi bilan taqqoslaganda, Toshkent metrosi bekatlarini haqiqiy san‘at asari deyish mumkin va ko‘pchilikni “nega metroni bezashga bunchalik jiddiy yondoshildi?” - degan savol qiziqtirgani tabiiy.



XX asrning 60-yillarida mamlakatimizda metroni loyihalashda "yer osti muzeylari"ni yaratish tamoyiliga amal qilindi va buning tasdig'ini bekatlarning har birida ko'rish mumkin. Ayniqsa, "Mustaqillik maydoni", "Hamid Olimjon", "Pushkin" bekatlari ular orasida ajralib turadi va eng yaxshi bekatlar sirasiga kiradi. Ularda arxitektura va san'at bir-birini to'ldirib, yuqori badiiy obraz yaratilgan. Chilonzor bekatini ham ular safiga kiritish mumkin. Bu bekat dizayni ustida Boltiqbo'y ustalari ishlaganlar, ular sopol pannolarda Sharqqa, uning hayoti va xalqiga bo'lgan qarashlarini aks ettirganlar.

Yevropaliklarning nazdida Sharq ekzotik o'lka, shuning uchun bu yerda tasvirlar va shakllar biroz borttirilgan bo'lib chiqdi.

O'zbekiston yo'lida 'Alisher Navoiy" va "Kosmonavtlar" bekatlari dizayn jihatidan eng muvaffaqiyatlari hisoblanadi. "Alisher Navoiy" bektasi "Mustaqillik maydoni" singari noyob loyiha asosida qurilgan - bu yerda shiftlar boshqa bekatlarga qaraganda ancha balandligi bilan ajralib turadi, ammo boshqa o'ziga xos xususiyatlari ham bor.

Bu bekat taniqli rassom Chingiz Axmarov tomonidan bezatilgan. Uning Davlat Akademik Katta teatri devorlarini bezab turgan A. Navoiyning

mashhur "Xamsa" asariga ishlagan asarlari metro bekatidagi tortta sopol pannoda takrorlangan.

"Kosmonavtlar" bekatidagi yorug'lik Kosmos tasvirini muvaffaqiyatli to'diradi. Umuman olganda, yoritish har qanday interyer va makon dizayni uchun, shuningdek, metro uchun ham muhim o'rinn tutadi.

2020-yilda Yunusobod yo'li bitkazildi va Chilonzor yo'lining beshta bekatdan iborat Sirg'ali tarmog'i ham foydalanishga topshirildi.

Badiiy dizaynga ko'ra, Yunusobod yo'lining bekatlari mutaxassislar tomonidan uncha yaxshi baholanmaydi. Ular badiiy obrazga ega emaslar, me'morchilik va san'at nuqtai nazaridan muvaffaqiyatsiz chiqqan deb hisoblanadi, shuningdek, ushbu bekatlar texnologik jihatdan ham o'zgacha.

Biroq, bu masalada mutaxassislar va oddiy yo'lovchilarining fikrlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, metro foydalanuvchilarining aksariyati "Bodomzor" bektasi juda yoqimli yoritish tizimiga va g'ayrioddiy dizaynga ega, deb hisoblashadi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, "Dostlik" (sobiq Chkalov) bekatini ham dizayn jihatidan muvaffaqiyatli deb, bo'lmaydi. Oddiy yo'lovchilarni esa, u hayratda qoldiradi. Ham mutaxassislarning,

ham yo'lovchilarining fikriga ko'ra, muvaffaqiyatli deb hisoblangan yagona bekat - bu "Kosmonavtlar" bektasi.

Yer osti muzeyi g'oyasi - noyob loyihadir. Bizning metro bekatlarimiz dizaynining hashamati va o'ziga xosligini dunyoning hech bir joyida topolmaysiz

Yulduz Latipaeva



Tashkent metro - “Underground museum”



It is said that if a city's population exceeds one million, the construction of the subway begins. In fact, the metro was designed to solve the problems of urban movement and is considered the most important transport artery of the metropolis. In the middle of the 20th century, the metro, the first subway system in Central Asia, began construction

in Tashkent as part of the program of the renovated Tashkent after the earthquake. First, "The Red" Chilonzor line was built, then the Uzbekistan line was set up, by 2001, the Yunusobod metro line was put into operation. To date, more than thirty unique, colorful and impressive metro stations are successfully operating in the capital. A special advantage of

many of them is the exclusive arrangement.

Undoubtedly, compared with the subways of such large cities as Delhi, Paris, London, New York, etc. Tashkent stations are a real work of art and many people asked "why is the design of our metro so fundamental?"





In the 60s, the principle of creating "underground museums" was developed in the field of subway design in our country; each of the stations confirms this. Mustakillik Maidoni, Hamid Olimjon and Pushkin stations are especially distinguished and ranked among the best. Here, architecture and works of art organically complement each other and create a highly artistic image.

The Chilonzor station is among the best. Baltic artisans worked on its conception and reflected their view of the East, its way of life and people in the ceramic panels. In the eyes of Europeans, the East looks exotic, so the images and forms here turned out to be a little exaggerated.

On the Uzbekistan line, the Alisher Navoi and Kosmonavtlar stations are considered to be the most prosperous in terms of decor. The Alisher Navoi station, like the Mustakillik Maidoni, was built according to a unique project - here the height of the ceilings is much higher than others, but there are also other features. The Alisher Navoi station was designed by the famous artist Chingiz Akhmarov. His works adorn the walls of the State Academic Bolshoi Theater named after Alisher Navoi and the master iterated the same images in four ceramic panels of the metro station. It reflects the theme of Khamsa, the famous work by Navoi.

At the station Kosmonavtlar, the lighting successfully complements the image of the outer space. In general, lighting plays a big role in the design of any interior and space, as well as for the subway. In 2020, the construction of the Yunusobod line was completed, and the Sergeli radius of the Chilonzor line, consisting of five stations, was opened.

In terms of artistic design, experts preferred not to assess all stations of the Yunusobod line. They do not have an artistic image, and from the point of view of the synthesis of architecture and art, they are very unsuccessful. Nevertheless, this line differs in other technologies.

However, on this issue, the opinions of specialists and ordinary people differ in many respects. For example, most metro passengers prefer to the Bodomzor station. Here, according to passengers, there is very pleasant lighting and unusual design.

According to experts, Dostlik (the Chkalov) station is one of the less favorable ones, but it impresses the layman. The Kosmonavtlar is the only station that was reviewed positively in the opinions of both specialists and passengers.

The idea of underground museums is a unique project. Our subway system is one of a kind in terms of construction and decor.



Yulduz Latipaeva

Obi Hayot Restaurant –

is a piece of the charming East.

Bright, harmonious, rich!

Give in to temptation, enjoy the food,
feel the taste of life, and rest your soul.

Be our guest.

4 Dzharkurganskaya st.
+998 97 350 88 88



obihayotrest



obi_hayot



O'zbekiston
bo'ylab
sayohatlar

Dunyo bo'ylab
sayohatlar

Biznes
sayohatlar

Avia va T/Y
chiptalar

Viza qo'llab-
quvvatlash

O'ZBEKİSTON BO'YLAB SAYOHATLAR

O'zbekiston buyuk ipak yo'lining
xazinasidir, Samarqandning jo'shqin
masjidlari va Buxoro karvonsaroylari, qadimiy Xiva va
hozirgi poytaxt Toshkentdir. Saxyi oshxonalar, ajoyib
sharoqlar, samimiylar va mehmondo'st odamlar.

✉ info@asiamice.uz

+998 99 591 55 77
+998 99 594 55 77

⌚ asiamiceuz

⌚ asiamiceuz

ASIAMICE.UZ



 BARBER SHOP	 NEW MILLENNIUM CONCEPT STORE	FASHION <small>NM NEW MILLENNIUM</small> OUTLET
LACOSTE 	GANT	
Calvin Klein	TOMMY  HILFIGER	<i>Camicissima</i> MILANO ITALIAN SHIRTS SINCE 1931
SWAROVSKI	LIU-JO	yamamay
MANGO	UNITED COLORS OF BENETTON.	 making friends
		

Bosh ofis:
Abdulla Qodiriy ko'chasi, 38 A
Главный офис:
улица Абдуллы Кадыри, 38 а
Main office:
Abdulla Kadiri str, 38 A

(71)200 77 77, (71)234 16 64
fcn.uz
fcnshop.uz



SWAROVSKI



📞 +78 129 11 61
🌐 fcnshop.uz

📡 swarovski_uzb
🌐 Crystal swan.uzb
🌐 sw_uzbekistan

Ул.Нурафшон 5, ТРЦ Riviera
5 Nurafshon str, Riviera Mall
Nurafshon 5, Riviera savdo markazi



BU YIL KUZDA DAM OLİSH UCHUN QAYERGA SAYOHAT QILISH MUMKIN?

Kuz – bu quyoshning so'nggi nurlaridan zavqlanish imkoniyati hali ham mavjud bo'lgan vaqt. Yozda ta'tilga chiqishga vaqtingiz bo'limgan bo'lsa, tushkunlikka tushmang – Uzbekistan Airways sizga yangi yo'nalishlar va shu yilning kuzida qaysi davlatlarga sayohatga borish mumkinligi haqida ma'lumot beradi.



ITALIYA

Avgust oyidan Uzbekistan Airways yo'lovchilari uchun yangi yo'nalish ochilib, 19-avgustdan boshlab har juma kuni Urganch-Milan-Toshkent yo'nalishida parvozlar amalga oshirila boshlandi. Yo'lovchilar Italiyadagi ta'tillarini eng ajoyib shaharlardan birida ötkazishlari mumkin.




FRANSIYA

Uzbekistan Airways shu yilning kuzida ham Toshkentdan Parijga parvozlarni davom ettiradi va endi yo'lovchilar har juma kuni Yevropaning eng romantik shahri, muhtasham me'moriy yodgorliklarga ega ochiq osmon ostidagi muzey va abadiy sevgi shahri – Parijga sayohat qilishlari mumkin bo'ladi.



YAPONIYA

18-avgustdan boshlab Tokio Uzbekistan Airways yo'lovchilari uchun yangi manzilga aylandi va shu yilning kuzida sayohat qilish uchun xavfsiz tarzda tanlanishi mumkin. Kunchiqar mamlakatiga ta'til yoki qisqa sayohat qilishni xohlovchilar payshanba kunlari Toshkentdan Tokioga borib, sharq madaniyati va mahalliy an'analar muhitiga sho'ng'ib ketishlari mumkin.



MALAYZIYA

O'zbekistondan Malayziyaga toğ'ridan-toğ'ri aviaqatnovlarning qayta tiklanishi aviakompaniya yo'lovchilari uchun uzoq kutilgan xushxabar bo'ldi. Kuala-Lumpur bu yil kuzda yana sayohatchilar uchun borish qulay manzilga aylanadi. Malayziya yilning istalgan vaqtida dam olish uchun ajoyib tanlov, chunki issiq iqlimli, dengiz bo'yidagi bu tropik mamlakat haqiqiy jannatdir.

TAILAND

Tez orada Bangkokka toğ'ridan-toğ'ri qatnovlar sizlarni xursand qiladi. Joriy yilning kuzidayoq Uzbekistan Airways bilan Tailandga sayohat qilishingiz va shovqinli shahardan uzoqda, orollardan birining qumli qirg'og'ida issiq yoz va ajoyib dam olish muhitiga sho'ng'ishingiz mumkin bo'ladi.

Hozirda mavjud bo'lgan yo'nalishlar uchun aviachiptalarni aviakompaniyaning www.uzairways.com sayti yoki «UzAirways» mobil ilovasida xarid qilishingiz mumkin.



Where to go on vacation this fall?

Autumn is the time when there is still an opportunity to enjoy the sun rays. Moreover, if you did not get a chance to go on vacation in summer, don't get upset. Uzbekistan Airways will let you know about new destinations and what country is worth visiting this fall.



ITALY

Back in August, Uzbekistan Airways opened a new destination for passengers - flights on the Urgench-Milan-Tashkent route began to operate every Friday from August 19. Passengers will be able to spend Italian holidays exploring one of the most interesting cities of the world.



FRANCE

Flights from Tashkent to Paris also continue to operate this autumn and now Uzbekistan Airways passengers will be able to go to Paris, the most romantic city in Europe, an open-air museum with magnificent architectural monuments and the city of eternal love.



JAPAN

Since August 18, Tokyo has become an accessible destination for Uzbekistan Airways passengers again and you can safely choose it for travel this fall. Those wishing to spend a vacation or a short trip to the Land of the Rising Sun can go from Tashkent to Tokyo on Thursdays and feel the aura of oriental culture and local traditions.



MALAYSIA

The long hoped good news for our future passengers is the option for direct flights from Uzbekistan to Malaysia. Kuala Lumpur will once again become an affordable destination for travelers this fall. Malaysia is a wonderful place to go year-round, with its warm climate and tropical paradise.



THAILAND

This is a pleasant fact that direct flights to Bangkok are soon to come. This fall you will be able to travel to Thailand with Uzbekistan Airways and experience an enjoyable summer vacation away from the loud city at sandy peaceful islands.

Tickets are available on the website www.uzairways.com or in UzAirways mobile app.

HUMAN HOUSE

gallery

presents exclusive products
from A to Z: clothes, shoes,
home decor, ceramics,
souvenirs.

Address: Tashkent,
Kichik Mirobod str., 43
Tel: +998712551622
www.human-house.com

Worldwide shipping



HUMAN
HOUSE



NOBILE
MEDITERRANEAN
RESTAURANT

Nobile Restaurant –

is a combination of elegance in the interior and an impeccable menu, that satisfies the tastes of the most sophisticated gourmets.
Extremely hard to resist...

332 Abdullah Kadiri st.
+998 94 628 88 88



nobile.uz



nobile.uz

**Havo kemasi bortida
tarqatiluvchi ovqat.
Uzbekistan Airways`ning yangi
menyusida nimalar bo'ladi?**

Joriy yilning avgust oyidan boshlab Uzbekistan Airways aviaqatnovlar bort menyusini yangilashni boshladi. Toshkent – Seul – Toshkent aviaqatnovi yangi menu joriy etilgan birinchi yo'nalish bo'ldi. 2022-yil 11-avgust kuni HY-511 aviaqatnova yo'lovchilar yangi taomlarni birinchilardan ta'tib ko'rishdi.





Fatih Berber – Uzbekistan Airways yangi bosh oshpazi bort menyusidagi o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumot berdi:

“

Yangi konsepsiyaning asosiy farqi shundaki, aviakompaniya keng yo'nalishlar tarmog'iga ega bo'lgani uchun menu endi zamonaviyrot taomlardan iborat bo'ladi. Menyuni to'liq almashtirish uzoq jarayon bo'lishiga qaramay, yangi 2023-yilni biz har bir aviaqatnovlarda yangi menu bilan kutib olishni rejalashtirmoqdamiz. Seuldan boshlab, asta-sekin ikki soatdan ko'proq davom etadigan har bir yo'nalishda havo kemasi bortida tarqatiluvchi taomlarni qariyb 85% gacha yangilaymiz, — dedi Fatih Berber.

Yangi bort menyusi mavsumiy davrlarga qarab bo'linadi, ularning har biri o'z menyusiga ega bo'lib, yil fasli, parvoz davomiyligi, xizmat ko'rsatish klassi, jo'nash vaqt va yo'nalishiga qarab o'zgaradi.

“

Yangi menu yaratishda biz ko'plab nozik jihatlarni hisobga olishga harakat qildik: parvoz yo'nalishi – Yevropa yoki Osiyo; parvozning qancha davom etishi – 3 soat yoki undan ko'proq; parvoz qaysi vaqtida amalga oshiriladi – erta tongda yoki kechasi. Albatta, biz bortda tarqatiluvchi taomlarning xalqaro va mahalliy standartlariga rioya qilishga harakat qildik. Uzbekistan Airways aviakompaniyasi xalqaro yo'nalishlarda parvozlarni amalga oshirayotganini hisobga olib, bortdagi oziq-ovqat barcha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishi kerak, – ta'kidladi yangi bosh oshpaz.



Biznes-klass uchun yangi menu va xizmatning yangilangan konsepsiysi endi besh yulduzli restoranlar standartlariga javob beradi. Biz yo'lovchilarimiz parvoz vaqtida ham o'zlarini yaxshi restorandagidek his qilishlarini istaymiz.

Onboard meals. What Uzbekistan Airways offer in the new menu?

In August of this year, Uzbekistan Airways began updating the onboard menu. The Tashkent – Seoul – Tashkent flight is the first destination to launch its new menu . On August 11, 2022, the passengers of HY-511 flight have been the first ones to taste new dishes.

Fatih Berber, newly appointed Chef at Uzbekistan Airways Catering, tells us about the changes in the onboard menu:

“

As Uzbekistan Airways has a wide route network, we introduce a new concept of modern food to travelers. Despite the fact that a complete replacement of food is a rather long process, we plan to meet the new 2023 with a refreshed menu in each flight. Starting from Seoul, we will gradually upgrade about 85% of all onboard meals in each direction lasting more than two hours', - Fatih said.

The new onboard menu will be divided into time cycles, each of which will have its own menu depending on the season, flight duration, class of service, departure time and direction.

“

Upon creating a new menu, we tried to consider many nuances: direction of flight - Europe or Asia; duration of flight - 3 hours or more; departure time - early in the morning or at night. Of course, we do our best to comply with international and local standards of onboard meals. Considering that Uzbekistan Airways operates flights to international destinations, onboard meals should meet all international standards,' - the new Chef shared the main idea.



The updated concept of the new menu and business class service will meet the standards of five-star restaurants. We want our passengers to feel like at a good restaurant even during the flight.



SOVG'ALARMI? ULARNI EASY OLING!

Instagramdagi

@easybooking.uz


sahifamizga obuna bo'ling
va sovrinli o'yinlarda
ishtirok eting.

Sovrin jamg'armasi
10 000 000 so'm.



skaner qiling

O'yin sanalari:
31-avgust - 30-sentyabr.



SAYOHAT QILISH BU EASY.

Biz turlar uchun eng yaxshi narxlarni taklif qilamiz.



Gruziyaga \$520 dan



Turkiyaga \$635 dan



BAAga \$599 dan

Alisher Navoiy nomidagi teatr: YANGI MAVSUM VA ULKAN REJALAR



Alisher Navoiy nomidagi
Davlat Akademik Katta opera
va balet teatri O'zbekistonning
yetakchi teatri sanaladi va sakson
yildan ortiq vaqt mobaynida
opera va baletning mumtoz
spektakllariga ishtiyoqmand
bo'lgan tomoshabinlarni kutib
olishda davom etmoqda. Teatr
Sharq madaniyati va Yevropa
spektakllarining an'analarini
birlashtirib, mamlakat aholisi va
uning mehmonlarini o'ziga jalg qila
oldi.

Bino Toshkentning qoq markazida
joylashgan bo'lib, 1945-yilda yapon
harbiy asirlari tomonidan qurilgan.
Qarshisida turgan muhtasham
favrora va yashil daraxtlar bilan
o'ralgan teatr, yillar davomida har
bir inson tashrif buyurishi kerak
bo'lgan joy mavjesini saqlab qoldi.
Chet elliklar uchun poytaxtning
madaniy tarkibiy qismi bilan

tanishish imkoniyati birinchi
navbatda turadi. Sayohatchilar
Alisher Navoiy nomidagi
teatrga tashrif buyurganlarida,
san'atkorlarimiz italyan, ingliz,
o'zbek tillarida qanday kuylashlari
yoki Andris Liepa boshchiligidagi
balet truppasi o'z spektakllariga
qanday g'ayrioddiylik olib kirishlari
bilan qiziqishadi.

Oxirgi mavsum butun jamoa uchun
juda samarali o'tdi. Aprel oyida ular
Koreyaning mashhur maskanlarida
yetakchi solistlar va teatr yulduzлari
ishtirokida beshta opera spektaklini
namoyish etishga muvaffaq bo'lishdi.
Balet truppasi esa, oxirgi marta
Dubayda konsert berdi. 2022-yilning
noyabr oyida ular Bokuda
“Rigoletto” operasi va “Ming
bir kecha” baleti namoyishini
o'tkazishni rejalashtirishmoqda.

“

Ozarbayjonga aynan qanday
spektakl bilan borish haqida
uzoq o'ylab, haqiqiy sharqona
ertakni tanladik. Balet 1979-yilda
ozarbayjon kompozitorlari
va rejissyorlari tomonidan
sahnalashtirilgan. Shu bois,
tomoshabinlar bizni munosib
baholashlarini istaymiz, – deydi
teatr direktori Ramiz Usmonov.

Besh yil oldin jamoaga Rossiya xalq
artisti Andris Liepa qo'shildi va shu
damdan boshlab balet truppasida
sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tdi.
Andris, oilasi kabi mashhur
bo'lib, teatrga zamonaviy va yangi
o'zgarishlarni olib kela oldi.



Bosh xoreograf va uning ulkan jamoasining sa'y-harakatlari tufayli, teatr repertuaridan mustahkam o'rin olgan yangi spektakllar bilan bir qatorda dekoratsiya, liboslar, yorug'lik effektlari ham yangilandi. Bugungi kunda teatrda Rossiyanidan kelgan va orkestrni yangi bosqichga ko'targan dirijyor Denis Vlasenko jamoa bilan hamjihatlikda ishlab, ularga yangi uslublarni o'rgatmoqda. Shuningdek, teatr truppasiga sahnada jamoa bilan ajoyib muvaffaqiyatlarni namoyish etishga ulgurgan balerina Valeriya Borsi Italiyadan tashrif buyрган.

“

Oldinda ulkan rejalarimiz bor. Biz teatrimizga Italiya va boshqa Yevropa davlatlaridan imkon qadar ko'proq dirijyor va san'atkorlar kelishlarini istaymiz. Balki tez orada **Kovent-Gardenden** musiqachilarini olib kelishimiz mumkin, - deydi direktor.

“

- Chet elliklarni olib kelish har doim qiyin, chunki bu katta mablag' talab qiladi. Biroq, hozirda homiyalar bizni to'liq qo'llab-quvvatlashayotganligi tufayli, bu borada hech qanday muammo yo'q. Biz allaqachon Irina Obrazsova, Alfiya Karimova, Mixail Sinkevich, Sergey Polunin va boshqa san'atkorlarni olib kelganmiz, - deb eslaydi Ramiz Usmonov.

Direktor har bir sayyohga "Oqqush ko'li", "Traviata" va "Karmen" spektakllarini tomosha qilishni maslahat beradi. Klassik spektakllar to'liq zallarni muvaffaqiyatli yig'ib, butun dunyo bo'y lab tomoshabinlarni sahnadagi artistlarni olqishlashga undaydi.

Darya Penzova

Keyingi mavsum 8-sentabr kuni teatr oldidagi mahobatli favvora oldida Open Air bilan boshlanadi. Butun dunyoga mashhur italiyalik tenor Alessandro Safino mahalliy musiqachilar bilan birgalikda unda ishtiroy etadi.



Alisher Navoi Theater: new season and great plans



The State Academic Bolshoi Opera and Ballet Theater named after Alisher Navoi is considered the leading theater of Uzbekistan and for more than eighty years it continues to welcome within its walls audiences who are passionate about classical opera or ballet performances.

The theater brought together Eastern culture and traditions of European productions, attracting both residents of the country and its guests. Located in the center of Tashkent, the building was built by Japanese war prisoners back in 1945. The theater sheltered by green trees and a majestic fountain standing in front of it, from year to year, strengthens the position of a place that everyone should visit.

For foreigners, foremost, it is an opportunity to learn the cultural component of the capital. Upon visiting the Alisher Navoi theater, tourists are extremely curious to listen to our artists to sing in Italian, English or Uzbek or what is so unusual Andris Liepa has to introduce in the ballet troupe.

The last season turned out to be highly productive for the entire team. In April, they managed to perform five

opera plays at famous venues in Korea with leading soloists and theater stars. The ballet troupe performed in Dubai not long ago. In November 2022, they are coming to play the opera **Rigoletto** and the ballet **One Thousand and One Nights** in Baku.



For a long time we have been thinking as to which spectacle we should choose for our trip to Azerbaijan and preferred a real oriental fairy tale. The ballet was staged by Azerbaijani composers and directors back in 1979, so we want the audience to look upon our work with favor, - says the director of the theater Ramiz Usmanov.



Five years ago, National artist of Russia Andris Liepa joined the team and since then there have been noticeable changes in the ballet troupe.

Andris as famous as his family was able to bring something modern and new to the theater. Thanks to the efforts of the chief choreographer and his huge team, the scenery, costumes and lighting effects have been updated, as well as new productions which are firmly entrenched in the repertoire of the theater. Today, Denis Vlasenko, the conductor from Russia, raised the orchestra to a new level, building team harmony and teaching them new techniques. In addition, ballerina Valeria Borsi, who arrived to the ballet troupe from Italy, demonstrates incredible success on stage, but not soloing yet.

“We have huge plans ahead. We want as many conductors and artists from Italy and other European countries to join our theater. Perhaps soon we will be able to bring musicians from **Covent-Garden itself**, - the director shares.



The next season starts on September 8 with an Open Air near the majestic fountain. The world-famous Italian tenor Alessandro Safino will take part in this event and perform on stage with local musicians.

“It is always hard to bring foreigners, because it obliges to increase the budget. However, now, sponsors support us, so there are no problems. We have already brought Irina Obraztsova, Alfiya Karimova, Mikhail Sinkevich, Sergei Polunin and other artists, - Ramiz Usmanov recalls.

He especially advises every tourist to visit the performances like Swan Lake, La Traviata and Carmen. Classical productions successfully gather the full halls, making viewers from around the world applaud the artists on stage.

Darya Penzova

O'ZBEKISTON 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasining CHAMPIONi bo'ldi

Hindistonning Chennai shahrida o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi o'z tarixida ilk marta olimpiada championi unvonini qo'lga kiritdi. O'zbekiston terma jamoasi ushbu olimpiada davomida biror marta ham mag'lubiyatga uchramagan yagona jamoa bo'ldi.



UZBEKISTAN BECAME THE CHAMPION OF THE 44TH WORLD CHESS OLYMPIAD

At the 44th World Chess Olympiad held in Chennai, India, the men's national team of Uzbekistan has won the title of Olympic champion for the first time in its history. The national team of Uzbekistan was the only team that did not lose even once during this Olympiad.



"PETROVICH" restoranida siz orombaxsh vaqt o'tkazishingiz va mualliflik oshxonasining mazali taomlaridan bahramand bo'lishingiz mumkin

In "PETROVICH" restaurant you can have a good time and enjoy delicious signature dishes



📍 47, M. Riyoziy st.
Tashkent

98 188 05 88
71 206 32 88
71 206 33 20

🌐 petrovicuz
↗️ @Petrovich
📷 petrovic.uz


TOSHKENTGA SAYOHAT QILISH UCHUN **5** SABAB

Agarda siz Sharq tarixi va madaniyati bilan qiziqsangiz, albatta, O'zbekiston Respublikasining poytaxti - Toshkent shahriga tashrif buyurishingiz kerak.



5 REASONS TO VISIT TASHKENT

If you are interested in the history and culture of the East, you should definitely visit Tashkent, the capital of the Republic of Uzbekistan.



1.

Musulmon dunyosining sharqiy qismida aniq fanlar, xususan, astronomiya qadimdan gullab-yashnagan. Jahonga tanilgan taxtdagi olim, XV asr astronomi Ulug'bekning erishgan ulkan yutuqlari o'z-o'zidan paydo bo'lмаган. Bunga ishonch hosil qilishni istasangiz, Toshkentdagi Shayx Zaynuddin boba ziyoratxonasiga tashrif buyuring. Shayx maqbarasi yonidagi pishiq g'ishtdan qurilgan bu ikki qavatlari osti inshooti aslida "muvokit", ya'ni quyosh yilini aniq belgilash va ekliptikaning o'zgarishini o'lchash uchun mo'ljallangan astronomik rasadxonadir. Qurilish murakkab, aniq yo'naltirilgan imorat, tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, ming yoshdan oshgan.

Exact sciences, especially astronomy, have long flourished in the eastern part of the Muslim world. The great achievements of Ulugbek, the world-famous scientist on the throne, the astronomer of the 15th century, did not arise from scratch. If you want to make sure of this, visit the holy place of Sheikh Zainutdin-boba in Tashkent. This two-storey underground building made of burnt bricks next to the Sheikh's Mausoleum is actually a 'muwakit', that is, an astronomical observatory for accurately fixing the solar year and measuring the inclination of the ecliptic. According to researchers, the building of complicated structure and precisely oriented has an age of more than a thousand years.

XIII asrdan avval bu yerga jahon dinlaridan biri - Islom dini kirib kelgan. Shu damdan boshlab, ota-bobolarimiz Islom dinining qimmatli yozma yodgorliklari: qo'lyozma va hujjatlarni asrab-avaylab, puxta o'rjanib kelishgan. Eng oddiy hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkentda o'rta asrlarga oid elliq mingdan ortiq noyob islom qo'lyozmalari to'plangan. Ular orasida VII asr o'rtalarida Muhammad payg'ambarning shaxsiy kotibi tomonidan yozilgan, musulmon yozuvlarining asosiy manbai bo'lgan Xalifa Usmonning dunyodagi birinchi Qur'oni ham bor. Uni Hazrati Imom me'moriy-tarixiy majmuasi markazida joylashgan honaqa Mui Muborakda ko'rish mumkin.

Thirteen centuries ago, one of the world's religions, Islam, came to these places. Since then, our ancestors have kept and carefully studied the precious written monuments of Islam: manuscripts and documents. According to the most conservative estimates, more than fifty thousand unique medieval Islamic manuscripts have been collected in Tashkent. Among them is the world's first Qur'an of Caliph Osman, the primary source of the holy scripture of Muslims written by the hand of the personal secretary of the Prophet Muhammad in the middle of the 8th century. It can be seen in Honaka Muyi Muborak, located in the center of the Hazrati Imam architectural and historical complex.



2.

Agar siz ibtidoiy xalq amaliy san'atiga qiziqsangiz, asrlar zulmatidan hozirgi zamongacha yetib kelgan bunday xilma-xil an'anaviy hunarmandchilik va hunarlarni Toshkentda bo'lmasa, qayerdan topishingiz mumkin? Kulollarning bir necha avlodlari tufayli IX asrning mashhur Choch kulolchiligini qayta tiklagan Rahimovlar oilasining ustaxonasiga tashrif buyuring. "Ko'kcha darvoza" mahallasidagi o'zlarining muzey-ustaxonalarida toshkentlik mohir hunarmandlar ko'p yillar davomida xonadoningizni bezab turadigan noyob mahsulotlarni sizlar uchun tayyorlashadi.

If you are interested in pristine folk decorative and applied art, just in Tashkent, you find such a variety of living traditional crafts and skills that have come down to the present from the dark depths of centuries. Visit the workshop of the Rakhimov family, who by the efforts of several generations of potters revived the famous Chach ceramics of the 9th century. In their museum-workshop, skilled Tashkent craftsmen from Kukcha Darvoza mahalla will create unique products to become an ornament of your home for many years.



Jazirama issiqdan charchagan bo'lsangiz, baland cho'qqidagi Chorvoq ko'lining moviy suvi bo'yida mashhur "o'z-o'zidan aqldan ozgan go'zal" qo'shig'iда kuylangandek, Chimyon tog'lari bag'rida salqinlikni his qilasiz. Bu joylar Toshkentdan bor-yo'g'i bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan.

If you get tired of the heat, you can feel the coolness at the blue water of the high-altitude Charvak lake in the Chimgan mountains located only a few dozen kilometers away from Tashkent.



Butun dunyo oshpazlari turli xalqlarning milliy taomlari afzalliklarini faol muhokama qilishmoqda va taqqoslashmoqda. Insoniyat madaniyatining yo'nalishida esa, o'zbek milliy taomlari eng munosib o'rinni egallaydi. Mutaxassislarning aytishicha, Toshkent "bayram oshi" palovi Iskandar Zulkarnayn davridan beri tayyorlanib keladi. Toshkentdagi mashhur "Besh Qozon" umumiy ovqatlanish majmuasida oshpazlarimizning hayratlanarli san'atini shaxsan baholash lozim.

Gourmets all over the world actively discuss and compare the merits of national cuisines of different peoples. And in this area of universal culture, Uzbek national cuisine takes a worthy place. Experts say that Tashkent pilaf 'Bayram Osh' has been prepared since the time of Alexander the Great! The amazing art of our chefs should be evaluated personally in the popular Tashkent catering company 'Besh Kozon'.





Bon!

Boulangerie • Pâtisserie

Chain of French coffee shops

📞 71 252 56 94

🔗 boncafe.uz

30 Shevchenko St, Tashkent



Contemporary Uzbek restaurant

📞 71 252 5682

🔗 afsona_restaurant

28 Taras Shevchenko St,
Tashkent



Authentic Irish pub

📞 71 252 7842

🔗 irishpubtashkent

30 Taras Shevchenko St,
Tashkent

AFISHA

5-sentabr kuni Samarqand shahrida Registon maydonida "Sharq Taronalari" xalqaro musiqa festivali va "Oltin davr" musiqa yarmarkalari o'tkaziladi

On September 5 in Samarkand, Registan Square will host the International Music Festival "Sharq taronalari" and the international music fairs "Oltin davr".



10-sentabr kuni Toshkent viloyatining Parkent tumanida "Uzum festivali" bo'lib o'tadi

On September 10, the "Vine Festival" will be held in Parkent district of Tashkent region



Sentabr oyining o'rtaida Qoraqlpog'istonning Mo'ynoq tumanida va Xorazm viloyatining Xiva tumanida baliq taomlari va baliq turlarining namoyishlari o'tkaziladi.

In mid-September, demonstrations of fish dishes and fish species will be held in Karakalpakstan, Muynak and Khiva district of Khorezm region.



Sentabr oyida Buxoro viloyatida joylashgan Sitorai Mohi Xosa davlat muzeyida Zamonaviy Buxoro kashtalari ko'rgazmasi bo'lib o'tadi.

In September, the State Museum-Reserve Sitorai-Mokhi-Khosa in Bukhara region will host an exhibition of modern Bukhara embroidery



9-sentabr kuni Toshkentda "Gastro-bazaar" Xalqaro oziq-ovqat (gastronomik) festivali bo'lib o'tadi

On September 9, Tashkent will host the International Gastronomic Festival "Gastro-bazaar".



Sentabr oyi o'rtaida Farg'on va viloyatining Beshrig tumanida «Qo'qon - Triatlon» Xalqaro triatlon musobaqalari bo'lib o'tadi.

In mid-September, the International triathlon competition "Qo'qon - Triatlon" will be held in Beshrig district of Fergana region



Sentabr oyida Farg'on va viloyatining Qo'qon shahrida yosh baxshi ijrochilar bilan uchrashuv bo'lib o'tadi.

In September, meetings with young bakhshi performers will take place in the city of Kokand, Fergana region



2022-yilning 25 va 26-sentabr kunlari Alisher Navoi nomidagi Davlat Akademik Katta teatri sahnasida dunyoga taniqli raqqos Sergey Polunin boshchiligidagi mashhur "Satori" balet spektakli namoyish etiladi.

September 25 and 26, 2022 on the stage of the Bolshoi Theater named after Alisher Navoi ballet performance of the famous ballet "Satori" will be led by the world famous dancer Sergei Polunin.





Why MANHATTAN?

Darxondagi muhtasham
premium-klass turar-joy majmuasi

Mortgage up to
Ipoteka imkoniyati

15 years
yilgacha

Premium and business class residence

Prestigious schools and kindergartens nearby

Next to Eco park, Central park, beauty & spa salons,
number of luxury fitness centers, markets,
shops and medical clinics

Comfortable flat planning concepts



MANHATTAN

LUXURY RESIDENCE

FDG First
Development
Group



998 (78) 150 55 11

www.manhattan.uz / www.fdg.uz

Location: Darkhan district, next to Central Park